


2019-yil yanvar-dekabr oylarida O`zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 189924,3 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 70,7 % yoki 134329,5 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 29,3 % yoki 55594,8 mlrd. so`m moliyalashtirildi.



Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yilida amalga oshirilgan keng ko`lamli islohotlar natijasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi keskin oshib, o`tgan yilga nisbatan 133,9 % ni tashkil etdi.

Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo`yicha, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o`tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 3,1 % punktga kamayib, 26,6 % ni yoki 50686,8 mlrd. so`mni tashkil etdi.



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da


O`tgan yilga nisbatan o`zgarishi, %da



Mos ravishda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 3,1 % punktga ko`payib, 73,4 % ni yoki 139237,5 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da


O`tgan yilga nisbatan
o`zgarishi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning o`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi salmoqli bo`ldi – 39292,3 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 20,7 %. Aholi mablag`lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,6 % yoki 16302,5 mlrd. so`m o`zlashtirildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida o`zlashtirilgan to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar hajmi jadal o`sib, 37171,3 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davridagi jami asosiy kapitaldagi ulushiga nisbatan 12,2 % punktiga ko`payib, 19,6 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari
bo`yicha tarkibi, mlrd. so`m**



Shuningdek, tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan 24856,0 mlrd. so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,1 % ini tashkil etib, o`tgan yilga nisbatan 4,7 % punktga kamaydi), O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 27866,4 mlrd. so`m (14,7 % va 0,9 % punktiga ko`payish), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 21615,4 mlrd. so`m (11,4 % va 8,3 % punktga

ko`payish), Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi 6511,9 (3,4 % va 3,0 % punktga kamayish), Respublika byudjeti 14518,0 mlrd. so`m (7,6 % va 1,1 % puktiga kamayish), Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi 1759,2 mlrd. so`m (0,9 % va 0,3 % punktga ko`payish) va Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi hisobidan esa 31,3 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o`shish sur`atlarini moliyalastirish manbalari bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich kafolatlanmagan hamda boshqa xorijiy investitsiya va kreditlarda kuzatildi – o`tgan yilga nisbatan 4,1 marta o`shish. Shuningdek, to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalarda ham yuqori o`shish sur`atlari – 3,6 martaga o`shish kuzatilib, bu mahsulot taqsimoti kelishuvi shartlari asosida gaz-kimyoy majmuasi qurilishi bilan “Mustaqillikning 25 yilligi” konlarida qidiruv ishlarini yakunlash va ishlar olib borish, O`zbekiston Respublikasi investitsiya bloklarida (Kultak-Qamashi, Muborak, Surxon, Ashibuloq va Koskud, g`arbiy Farg`ona investitsiya bloklari) neft-gaz konlariga ishlov berish va geologik qidiruv ishlarini amalga oshirish, hududlarda sement ishlab chiqarishini tashkil etish, to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalarining jadal olib borilayotgani bilan bog`liq.



Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan 2017-2021 yillarda uglevodorodlarni qazib chiqarishni ko`paytirish bo`yicha Dastur doirasidagi investitsiya loyihalar, basalt toshidan mineral plitalar ishlab chiqarish majmuasini tashkil etish kabi yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.



Hududlar kesimida moliyalashtirish manbalari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	<i>Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so`m</i>	<i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo`yicha (jamiga nisbatan % da):</i>							
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Korxonalar va tashkilotlarning o`z mablag`lari</i>	<i>Aholining o`z mablag`lari</i>	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi</i>	<i>Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi</i>	<i>Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi</i>	<i>Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag`lari</i>
O`zbekiston Respublikasi	189924,3	7,6	20,7	8,6	45,7	0,9	0,02	3,4	13,1
Qoraqalpog`iston Respublikasi	8434,6	13,9	28,0	10,0	38,1	0,7	-	3,6	5,7
viloyatlar:									
Andijon	8183,7	8,4	22,2	16,9	35,2	1,1	-	0,1	16,1
Buxoro	9867,0	7,6	12,5	12,9	52,9	1,0	-	0,4	12,7
Jizzax	7919,3	11,0	17,9	6,6	47,0	1,5	-	0,8	15,2
Qashqadaryo	23525,3	3,5	15,8	5,7	71,0	0,7	-	0,0	3,3
Navoiy	17775,3	2,4	9,0	6,4	38,9	0,4	0,03	17,1	25,8
Namangan	12187,0	4,7	24,8	11,2	43,6	0,7	-	3,3	11,7
Samarqand	9798,6	12,0	19,5	15,8	28,6	1,6	-	0,2	22,3
Surxondaryo	12232,4	5,4	10,9	8,2	61,8	1,1	-	-	12,6
Sirdaryo	6129,2	9,8	18,2	3,7	46,5	1,4	-	0,4	20,0
Toshkent	16935,1	13,3	24,5	9,5	33,0	2,7	-	6,5	10,5
Farg`ona	9164,2	7,2	22,4	14,1	38,6	0,8	-	0,3	16,6
Xorazm	5566,8	8,7	13,4	18,2	42,2	1,4	0,5	3,6	12,0
Toshkent sh.	41497,9	6,7	30,6	4,2	43,3	0,2	-	3,2	11,8

Hududlar bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

**Qoraqalpog`iston
Respublikasi**

Hajmi – 8434,6 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 96,6 %



Andijon viloyati

Hajmi – 8183,7 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 142,3 %



Buxoro viloyati

Hajmi – 9867,0 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 91,3 %



Jizzax viloyati

Hajmi – 7919,3 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 195,2 %



Qashqadaryo viloyati

Hajmi – 23525,3 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 126,1 %



Navoiy viloyati

Hajmi – 17775,3 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 145,7 %



Namangan viloyati

Hajmi – 12187,0 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 132,0 %



Samarqand viloyati

Hajmi – 9798,6 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 128,2 %



Surxondaryo viloyati

Hajmi – 12232,4 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 148,8 %



Sirdaryo viloyati

Hajmi – 6129,2 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 194,3 %



Toshkent viloyati

Hajmi – 16935,1 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 132,2 %



Farg`ona viloyati

Hajmi – 9164,2 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 140,1 %



Xorazm viloyati

Hajmi – 5566,8 mlrd. so`m


O`sinh sur`ati – 167,1 %




Toshkent shahri

Hajmi – 41497,9 mlrd. so`m

O`sinh sur`ati – 142,5 %



Hududlarda o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 95,2 % ga o'sish Jizzax viloyatida kuzatildi. Bu asosan sement zavodi qurilishi bilan bog'liq.


Shuningdek, Sirdaryo viloyatida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, o'tgan yilga nisbatan 194,3 % ni tashkil qildi. Bunday natijani Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasida bosqichma-bosqich energobloklarni modernizatsiya qilish bilan izohlash mumkin.

Xorazm viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'tgan yildagi hajmiga nisbatan 167,1 % ni tashkil etishi Toshsookin tizimidagi sug'orish magistral kanallarini qayta tiklash loyihasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan bog'liq.

Jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmidagi ulushi bo'yicha hududlar kesimida Toshkent shahri hamon yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 21,8 % o'zlashtirildi. Mos ravishda Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida ushbu ko'rsatkich 12,4 va 9,4 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlariga qaramay Sirdaryo hamda Xorazm viloyatlarida o'zlashtirilgan investitsiyalarning jami Respublikada o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi eng kam ulushlar qayd etildi – 3,2 va 2,9 %.


**Asosiy kapitalga
investitsiyalarning
texnologik tarkibi**



O`zbekiston Respublikasi bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 93367,7 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lib, jami investitsiyalarning 49,2 % ni tashkil etdi, qurilish montaj ishlari bo`yicha 82339,0 mlrd. so`m (jami investitsiyalarfagi ulushi 43,3 %) va boshqa xarajatlarga 14217,6 mlrd. so`m (7,5 %) o`zlashtirildi.

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Surxondaryo viloyatida kuzatildi – 61,8 % yoki 7562,7 mlrd. so`m.

**Asosiy kapitalga
investitsiyalarning takror
ishlab chiqarish tarkibi**




Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo`yicha eng quyi daraja Jizzax viloyatida kuzatilib, 32,2 % ni yoki 2546,7 mlrd. so`mni tashkil etdi va mos ravishda, ushbu hududda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich – 65,5 % yoki 5189,6 mlrd. so`m kuzatildi.

2019-yilda ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo`naltirildi. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi 101800,2 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 53,6 % ini tashkil etdi.


Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar 54531,7 mlrd. so`mni tashkil etdi va respublikada jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 28,7 %ini tashkil etdi. Qolgan 17,7 %, ya`ni 33592,4 mlrd. so`m boshqa xarajatlarga yo`naltirildi.


Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich mahsulot taqsimoti kelishuvi shartlari asosida gaz-kimyoy majmuasi qurilishi bilan "Mustaqillikning 25 yilligi" konlarida qidiruv ishlarini yakunlash va ishlar olib borish loyihasi natijasida Surxondaryo viloyatida kuzatilib, u 68,9 % ni tashkil etdi.

Bu ko`rsatkichning eng past darajasi Jizzax viloyatida kuzatildi va u 26,4 % ni tashkil etdi.





**Qoraqalpog'iston
Respublikasi**








Andijon viloyati




Buxoro viloyati





Jizzax viloyati








Qashqadaryo viloyati




Navoiy viloyati





Namangan viloyati








Samarqand viloyati




Surxondaryo viloyati





Sirdaryo viloyati








Toshkent viloyati




Farg'ona viloyati





Xorazm viloyati






Toshkent shahri



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 51433,3 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 27,1 %i o`zlashtirilgan. Uning tarkibida eng ko`p investitsiyalar o`zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:

- to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 10719,0 mlrd. so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5,6 %);
- boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish 8991,7 mlrd. so`m (4,7 %);
- metallurgiya sanoati 8956,9 mlrd. so`m (4,7 %).

Xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilishi
(mlrd. AQSh doll)



2019-yil yanvar-dekabrda jami 12,1 mlrd. AQSh doll. xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilgan bo`lib, ulardan 81,0 %i yoki 9,8 mlrd. AQSh doll asosiy kapitalga o`zlashtirildi.

Jami o`zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 42,4 %i yoki 5,1 mlrd. AQSh dollarini to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar tashkil qildi, shu jumladan, 4,2 mlrd. AQSh dollari asosiy kapitalga to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so`m

	Jami	Shu jumladan:		
		To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar	O`z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Boshqalar
O`zbekiston Respublikasi	86653,1	37171,3	27866,4	21615,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	3212,3	829,5	1254,6	1128,2
viloyatlar:				
Andijon	2881,4	1441,7	276,1	1163,6
Buxoro	5226,1	2331,6	841,3	2053,2
Jizzax	3716,3	1383,4	369,2	1963,7
Qashqadaryo	16711,5	5653,4	9603,1	1455,0
Navoiy	6902,3	615,0	5877,5	409,8
Namangan	5313,6	981,0	2785,0	1547,6
Samarqand	2799,8	1215,8	691,6	892,4
Surxondaryo	7557,6	6165,4	601,1	791,1
Sirdaryo	2853,0	2117,0	641,8	94,2
Toshkent	5595,2	4147,4	412,7	1035,1
Farg`ona	3538,2	2415,9	141,2	981,1
Xorazm	2350,1	1142,8	468,1	739,2
Toshkent sh.	17995,7	6731,4	3903,1	7361,2


2019-yil yanvar-dekabrda 86653,1 mlrd. so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 45,7 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 42799,1 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 43854,0 mlrd. so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi.

To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar hisobidan joriy davrda 37171,3 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lsa, O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 27866,4 mlrd. so`m, 21615,4 mlrd. so`m boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan o`zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shirish sur`ati 2,5 martani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da



Qayta ishlash sanoati bo`yicha jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 33,3 % yoki 28854,4 mlrd. so`m xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilgan bo`lib, uning tarkibida yuqori ko`rsatkichlarni to`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 9,0 % yoki 7796,3 mlrd. so`m, boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish – 7,6 % yoki 6617,6 mlrd. so`m, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – 5,3 % yoki 4591,7 mlrd. so`m o`zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi.

Elektr, gaz bilan ta`minlash faoliyat turida ham katta hajmda xorijiy investitsiya va kreditlar o`zlashtirilib, jami 16734,1 mlrd. so`m yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,3 %i o`zlashtirildi.

Tog`-kon sanoatida esa 15124,8 mlrd. so`mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida 17,5 % ni tashkil etdi.


Obyektlarni ishga tushirish

2019-yil yanvar-dekabrda 14483,5 ming kv.m turar joylar foydalanishga topshirilgan bo`lib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 119,9 %ni tashkil etdi, shundan, 11802,7 ming kv.m yoki jami ishga tushirilgan turar joylarning 81,5 %i yakka tartibda qurilgan turar joylar, 1372,3 ming kv.m yoki jami ishga tushirilgan turar joylarning 9,5 %i namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar hamda qolgan 1308,5 ming kv.m yoki jami ishga tushirilgan turar joylarning 9,0 %i boshqa yuridik shaxslar tomonidan qurilgan turar joylarni tashkil etdi.

Foydalanishga topshirilgan turar-joylar uchun jami 18692,3 mlrd. so`m yo`naltirilgan bo`lib, shundan, Respublika byudjeti hisobidan 182,7 mlrd. so`m, korxonalar va tashkilotlar o`z mablag`lari 56,2 mlrd. so`m, aholi mablag`lari 10688,2 mlrd. so`m hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 7765,2 mlrd. so`m investitsiyalar o`zlashtirildi.


**Foydalanishga topshirilgan turar joylar
tarkibi**

Jamiga nisbatan, % da
9,0 %




- Yakka tartibda
- Namunaviy loyihalar asosida
- Boshqalar

Qishloq joylar ulushi, % da




**Foydalanishga topshirilgan sog`liqni
saqlash obyektlari**


smenada qatnov



- Ambulator poliklinikalar
- Qishloq vrachlik punktlari

Shifoxonalar, o`rin





Respublika bo'yicha 4285,5 km suv tarmog'i, 78,6 km gaz tarmog'i va 11408 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan maktablar ishga tushirildi.

Suv tarmog'i qurilishi bo'yicha 2457,9 mlrd so'm, gaz tarmog'i qurilishi bo'yicha 4,6 mlrd. so'm, maktablar qurilishi bo'yicha 1306,7 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi bo'yicha jami 1996,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, 53580 o'rinli muassasalar ishga tushirildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi*

Aloqa telefoni: (0371) 230-80-56
230-80-55